

Jinoyat to'g'risida qanday xabar berish kerak

• Agar siz jinoyat guvohi yoki jinoyat qurboni bo'lgan bo'lsangiz, 112 raqamiga xabar berish orqali politsiyadan tezda yordam olishingiz mumkin.

- Jinoyat haqida xabar berayotganda politsiyaga ayni paytdagi joylashuv va vaziyat (jinoyat qachon/qayerda/qanday sodir bo'lganligi) haqida ma'lumot bering va xotirjamlikni saqlagan holda jinoyatchining tashqi ko'rinishi, odamlar soni, yo'nalish, transport va hokazolar haqida ayting.
- Siz politsiyaga mobil telefon (video chqiruv mavjud), jamoat telefoni (taksofon), statsionar telefon orqali xabar berishingiz mumkin. Jamoat telefonidagi "favqulodda chaqiruv" (qizil tugma + 112) funksiyasidan foydalanganda tangasiz telefon qilishingiz mumkin. "Favqulodda chaqiruv" funksiyasidan jinoyatlardan boshqa favqulodda vaziyatlarda ham foydalanish mumkin.

※ Xorijlik shaxs 112 raqamiga xabar berganida, u uch tomonlama tarjimon (politsiya xodimi - tarjimon - xabar beruvchi) xizmatidan foydalanishi mumkin.

▶ Agar siz telefon qilish qiyin bo'lgan vaziyatda bo'lsangiz, "112 Favqulodda Chaqiruv" ilovasi yoki matnli xabar orqali ham xabar berishingiz mumkin.

※ "112 Favqulodda chaqiruv" ilovasini Google Play Market yoki Apple Appstore do'konidan yuklab olish mumkin.

▶ Politsiya xodimi dalillarni to'plash uchun kelguniga qadar jinoyat sodir bo'lgan joyni saqlab turing. Politsiya xodimi voqea joyini tekshirishi uchun u bilan hamkorlik qiling.



Yordam kerakmi? Quyidagi raqamlarni yodda tuting

Jinoyat haqida xabar berish va favqulodda chaqiruvlar	
Jinoyat haqida xabar berish (Milliy politsiya agentligi)	112
Maktabdagi zo'rvonlik haqida xabar berish markazi (Milliy politsiya agentligi)	117
Yong'in hodisasi, tibbiy shoshilinch yordam, favqulodda qutqaruv (Milliy yong'in agentligi)	119
Xakerlar hujumi, spam, shaxsiy ma'lumotlarning buzilishi (KISA)	118
Ayollar uchun favqulodda chaqiruv/maslahat (Gender tengligi va oila vazirligi)	1366
Danuri chaqiruv markazi (Gender tengligi va oila vazirligi)	1577-1366
Boshqa fuqarolik shikoyatlari	
Immigratsiya aloqa markazi (Adliya vazirligi)	1345
Milliy hukumat chaqiruv markazi (Ihki ishlar va xavfsizlik vazirligi)	110
Koreya bo'ylab sayohat ishonch telefoni (Koreya turizm tashkiloti)	1330
Inson huquqlari buzilishi bo'yicha shikoyat va maslahat (Koreya Inson huquqlari bo'yicha milliy komissiyasi)	1331
Yuridik konsultatsiya va maslahat (Koreya yuridik yordam korporatsiyasi)	132
Bolalarni himoya qilish organlari (Sog'liqni saqlash va ijtimoiy farovonlik vazirligi)	129
Yoshlar uchun kiber maslahat (Gender tengligi va oila vazirligi)	1388

Xorijlik shaxslarga yordam ko'rsatish bo'yicha siyosatlar

• Hozirda politsiya va Adliya vazirligi jinoyat qurbonlarini qutqarish va Koreyada yashovchi xorijlik shaxslarning asosiy inson huquqlarini himoya qilish uchun "Noqonuniy rezident/immigrat haqida bildirgi berishni istisno qilish tizimi" dan foydalanmoqda.



▶ "Noqonuniy rezident/immigrat haqida bildirgi berishni istisno qilish tizimi" ga muvofiq, noqonuniy rezident/immigrant jinoyat qurboniga aylanganda va o'z vaziyati haqida politsiyaga xabar berganda, politsiya noqonuniy rezident/immigrantning shaxsiy ma'lumotlarini mahalliy immigratsiya idorasiga yubormasligi kerak.

▶ Bu tizim tatbiq etiladigan jinoyatlar quyidagilardan iborat.

[Jinoiy huquqbuzarlik]

Qotillik, hujum, beixtiyor odam o'ldirish, tashlab ketish, zo'rvonlik qilish, noqonuniy ozodlikdan cheklash, qo'rqitish, odam o'g'irlash, odam olib qochish, zo'rlash, ta'qib qilish, huquqlarning amalga oshirilishiga to'sinlik qilish, o'g'irlilik, talonchilik, firibgarlik, shantaj qilish

[Maxsus qonunga ko'ra jinoyatlar]

"Zo'rvonlik jinoyatlari uchun jazo tayinlash to'g'risida"gi Qonun, "Jinsiy jinoyatlar uchun jazo tayinlash bo'yicha alohida holatlar to'g'risida"gi Qonun, "Yo'l-transport hodisalarini tartibga solish bo'yicha alohida holatlar to'g'risida"gi Qonun, "Mehnat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun (46-modda)
*Jinoyat qurboni bo'lganida yordam olish uchun 112 raqamiga xabar bering

• Politsiya bo'limiga shaxsan bormasdan yordam so'rash imkoniyatiga ega bo'lishingiz uchun biz bir nechta ko'p madaniyatli oilalarni qo'llab-quvvatlash markazlari va nodavlat tashkilotlarni "Xorijlik shaxslarga yordam ko'rsatish markazi/boshpanasi" sifatida belgiladik. Zarur hollarda har doim markazdan/boshpanadan foydalaning yoki tashrif buyuring.

★ Qanday foydalanish (bajarish) kerak

- Jinoyat/Shikoyat (xorijlik shaxsga nisbatan) sodir bo'ladi
- Xorijlik shaxslarga yordam berish bo'yicha chaqiruv markaziga xabar beriladi
- Ish tashqi ishlar politsiyasi agentligiga yuboriladi
- Ish mahalliy politsiya bo'limi yoki tegishli idora tomonidan xabardor qilinadi va ko'rib chiqiladi



▶ Agar siz jinoyatlar haqida xabar berish yoki fuqarolik shikoyatini bildirish uchun xorijiy shaxslarga yordam/chaqiruv markaziga tashrif buyursangiz, markaz operatori yoki direktori ishingizni tashqi ishlar politsiyasi xodimiga yuboradi. Shundan keyin ish xabaringiz/ishingiz tafsilotlari asosida politsiya boshqarmasining tegishli bo'limi yoki tegishli idora tomonidan ko'rib chiqiladi.

★ Jinoyat haqida xabar berish va konsultatsiya

• Hujum, uydgi zo'rvonlik, maktabdagi zo'rvonlik, firibgarlik va hokazolar kabi jinoiy ishlar bilan bog'liq xabarlar bevosita politsiya boshqarmasi tomonidan ko'rib chiqiladi.
• Ish haqi to'lanmaganligi, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, yashash joyining sharoitlari va hokazolar bilan bog'liq xabarlar Bandlik va mehnat vazirligi, Gender tengligi va oila vazirligi, Adliya vazirligi va hokazolar kabi tegishli agentliklarga xabar qilinadi. Shundan keyin ish/xabartafsilotlariga qarab siz tegishli elchixonaga yoki konsullikka yo'naltiriladi.

※ Agar sizga eng yaqinda joylashgan xorijlik shaxslarga yordam ko'rsatish markazi/boshpanasi haqida ma'lumot kerak bo'lsa, mahalliy politsiya boshqarmasining tashqi ishlar bo'limiga murojaat qiling.

• Biz huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha ta'lim va haydovchilik guvohnomasi bo'yicha trening kabi turli yordam va ta'lim kurslarini taqdim etamiz.

▶ Xorijlik shaxslar/talabalarning Koreyada moslashuvi va joylashuviga yordam ko'rsatish uchun biz quyidagi xizmatlarni taqdim etamiz.

- Biz ko'p madaniyatli oilalarni qo'llab-quvvatlash markazlari, ish obyektlari va nodavlat tashkilotlarida "Jinoyatlarning oldini olish bo'yicha dars" o'tkazmoqdamiz, bunda aniq subyektlarga (ya'ni, turmush qurgan immigratlar, xorijlik ishchilar, xorijlik talabalar va hokazolar) nisbatan tez-tez sodir etiladigan jinoyatlar va ularni oldini olish/saqlanish bo'yicha batafsil ma'lumotlar taqdim etiladi.
- Biz Koreyada haydovchilik guvohnomasini olishni xohlaydigan xorijliklarni qo'llab-quvvatlash maqsadida bepul "Xorijliklar uchun haydovchilik maktabi"ni tashkil etmoqdamiz. (Darsliklar uch tilda taqdim etiladi)

★ Haydovchilik guvohnomasi va haydovchilik imtihonlari bo'yicha so'rovlar

- Yo'l harakati boshqarmasi haydovchilik guvohnomalarini uchun imtihondan o'tkazish idorasi: 1577-1120 (www.safedriving.or.kr)
- Testlar va imtihonlar: 3 tilda topshirish mumkin (Ingliz, xitoy va vietnam tilida)

※ Jinoyatlarning oldini olish bo'yicha dars (kurs) va haydovchilik guvohnomasi bo'yicha darsga (kurs) qatnashish uchun eng yaqin politsiya bo'limining Tashqi ishlar bo'limiga murojaat qilishingiz mumkin.

• Koreys tilini bilmaydigan xorijliklarga fuqarolik shikoyatlari va jinoyat haqidagi xabar berishlari uchun tarjimonlik xizmatlarini taqdim etamiz.

Tarjimonlik agentligi	Tafsilotlar
Koreya bo'ylab sayohat ishonch telefoni (1330)	• Boshqaruv bo'limi : Koreya turizm tashkiloti • Ish soatlari : 3 tomonlama chaqiruv mavjud / Ingliz-Xitoy-Vetnam: Kun bo'yi ochiq / boshqa 5 til 08:00~19:00 (yil bo'yi) • Tillar : Ingliz, xitoy, yapon, rus, vietnam, tay, malay (Bahasa melayu), indonez (8 ta til)
Danuri chaqiruv markazi (1577-1366)	• Boshqaruv bo'limi : Gender tengligi va oila vazirligi • Ish soatlari : 3 tomonlama chaqiruv mavjud / Ingliz-Xitoy-Vetnam-Filippin: Kun bo'yi ochiq / boshqa 9 ta til 08:00~21:00 (yil bo'yi) • Tillar : Ingliz, xitoy, yapon, rus, vietnam, tay, mo'g'ul, filippin, kambodja, o'zbek, laos, nepal (12 ta til)
Xorijlik shaxslarga yordam berish markazi (Immigratsiya aloqa markazi) (1345)	• Boshqaruv bo'limi : Adliya vazirligi Koreya immigratsiya xizmati • Ish soatlari : 3 tomonlama chaqiruv mavjud / Ingliz-Xitoy 09:00~22:00 / Boshqa 17 ta til 09:00~18:00 (Faqat haftaning ish kunlarida) • Tillar : Ingliz, xitoy, yapon, rus, vietnam, tay, indonez, tay, mo'g'ul, filippin, kambodja, arab, nepal, fransuz, ispan, bangla, sinhala, pokistoncha urdu, nemis (19 ta til)
BBB Koreya (1588-5644)	• Boshqaruv bo'limi : Notijorat tashkilot (Xususiy) • Ish soatlari : 3 tomonlama chaqiruv mavjud (Ilova) / Kun bo'yi (24/7) • Tillar : Ingliz, xitoy, yapon, rus, vietnam, tay, malay (bahasa melayu), indonez, mo'g'ul, arab, fransuz, ispan, portugal, shved, polyak, italyan, nemis, turk, hind, suahili (20 ta til)



Xorijliklar uchun jinoyatlarning oldini olish bo'yicha yo'riqnoma



우즈베크어 O'zbekcha
www.police.go.kr



Agar bu haqida bilmasangiz, oson sodir etiladigan jinoyat turlari

• **Hujum, qo'rqitish, uy-joyga bostirib kirish, talonchilik, mulkka zarar yetkazish, noqonuniy ozodlikdan cheklash, shantaj va hokazolar kabi jinoyatlarni sodir etish uchun guruh tashkil qilish/bunday guruhga qo'shilish qattiq jazoga tortiladi.**

• **Asosli sabablarisiz odamning hayoti yoki tanasiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan qurol yoki vositalarni (pichoq, temir quvur, temir arra va hokazolar) olib YURMASLIGINGIZ kerak.**

• **Haqiqiy pul bilan qimor O'YNAMASLIGINGIZ kerak. Qimor o'yinlarini o'tkazish uchun joy berish ham noqonuniy harakat hisoblanadi va buning uchun qattiq jazolanishingiz mumkin.**

• **Agar siz tashlab ketilgan narsalarni (ya'ni, velosiped va hokazolar) olsangiz ham, yo'qolgan narsalarni o'g'irlash yoki sarflash uchun jazolanishingiz mumkin.**

• **Agar siz tashlab ketilgan narsalarni (ya'ni, velosiped va hokazolar) olsangiz ham, yo'qolgan narsalarni o'g'irlash yoki sarflash uchun jazolanishingiz mumkin.**

• **Noqonuniy giyohvand moddalar/narkotik moddalar ishlab chiqarish, kontrabanda qilish, saqlash va qabul qilish uchun qattiq jazo beriladi va deportatsiya qilinadi.**

► Milliy politsiya agentligi ▲ Noqonuniy giyohvand moddalar savdosi bilan shug'ullanuvchilar/yetkazib beruvchilar ▲ Xorijlik narko-jinoyatchilar ▲ Internet (Dark Web) va SNSdan foydalangan holda faoliyat yurituvchi narko-jinoyatchilarga qarshi keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

• **17 yoshdan oshgan xorijlik shaxslar har doim o'zi bilan pasporti, xorijlik shaxsning ro'yxatdan o'tish kartasi va hokazolarni olib yurishi kerak. Bu qonunni buzganlar 1 million KRW dan kam miqdorda jarima solinadi.**

► Agar siz boshqa shaxsni aldash maqsadida boshqa shaxsning shaxsiy guvohnomasidan foydalanishga yoki soxta hujjatdan foydalanishga urinsangiz, siz firibgarlik usullari bilan xizmat vazifalarini bajarishga to'sqinlik qilganlik uchun jazolanishingiz mumkin.

• **Noqonuniy tasvirga olish, jinsiy zo'rvonlik materiallarini yuborish va hokazolar kabi harakatlarni qattiq jazolanadi.**

► Hatto jismoniy aloqa bo'lmasa ham, quyidagi harakatlarni jazolanadi : ① Internet, mobil telefon va hokazolar orqali jinsiy sharmandalikka olib keladigan matn yoki surat yuborish. ② Boshqa shaxs tanasining rasmini uning roziligisiz olish va tarqatish ③ Noqonuniy tasvirga olingan video yoki suratlariga egalik qilish, sotib olish, saqlash yoki tomosha qilish.



• **Avtotransport vositasi, mototsikl yoki elektr skuterni boshqarishda quyidagi holatlar qattiq jazolanadi.**

► Haydovchilik guvohnomasiz avtomobil, mototsikl yoki elektr skuterni boshqarish jazolanadi.

► Mast holda avtotransport vositasini boshqarish qattiq jazoga tortiladi.

► Agar egalik huquqi qonuniy ravishda o'tkazilmagan avtmobilni boshqarsangiz, jazoga tortilasiz.



• **Jamoat tartibini buzganlik uchun jazolar yoki jarimalar qo'llaniladi.**

► Sigaret qoldig'i, saqich, chiqit va hokazolarni tashlamang.

► Jamoat joylarida tupurmasligingiz yoki chekilmaydigan joylarda chekmasligingiz kerak.

► Mototsikl yoki elektr skuter/kikbord haydaganda har doim xavfsizlik dubulg'asini kiyishingiz kerak.

► Elektr skuterlarida faqat bir kishi harakatlanishi mumkin.

► Yo'lni kesib o'tayotganda ko'prik (piyodalar ko'prigi) yoki piyodalar o'tish joyi (yashil chiroq yoqilganda) orqali o'ting.



Kundalik hayotda jinoyatlarning oldini olish va ularga javob berish bo'yicha maslahatlar

• **Firibgarlik/Tovlmachilik (noqonuniy piramida sxemalari, telefon firibgarligi, smishing, internet firibgarligi va hokazolar)**

► Noqonuniy piramida sxemalari : Bunda iste'molchi to'g'ridan-to'g'ri brend/mahsulot sotuvchisiga aylanadi va o'z-o'zidan mahsulotni sotadi. Agar kimdir sizni piramida sxemasiga jalb qilmoqchi deb ylasangiz, uning taklifini rad eting va suhbatni darhol to'xtating.

• Agar kimdir sizga "qisqa vaqt ichida yuqori daromad olishingiz mumkin" deb aytib, a'zo bo'lish yoki investorlik qilishga jalb qilganda yoki ular sizni muayyan mahsulotlarni sotib olishga yoki kredit olishga majbur qilgan hollarda.

• Agar kimdir sizni sotuvchi sifatida ro'yxatdan o'tkazishga harakat qilganda (ya'ni, yarim stavka ishlash, qo'shimcha ish va hokazolar) va sizni mahsulotni sotib olishga majbur qilgan hollarda.

• Kimdir soxta reklama orqali mahsulotni qimmat narxda sotishga harakat qilgan hollarda.

★ **Agar u ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxs ekanligiga ishonchingiz komil bo'lmasa, quyidagi muassasalarga murojaat qiling**

- Adolatli savdo komissiyasi : www.ftc.go.kr, 1670-0007 (Pulli xizmat)
- Iste'molchilarning o'zaro yordam birlashmasi : www.macco.or.kr, 02-566-1202
- Koreya maxsus savdo moliyaviy kooperativ assotsiatsiyasi : www.kossa.or.kr, 02-2058-0831-8

► Telefon orqali tovlamachilik/firibgarlik: Agar kimdir telefon orqali davlat muassasasi yoki moliya instituti nomidan murojaat qilib, sizdan muayyan hisobga pul jo'natishingizni yoki shaxsiy ma'lumotlaringizni (ya'ni, bank hisobi, karta raqami, rezidentning ro'yxatdan o'tish raqami va hokazolar) ochiqlashni so'rsa, qo'ng'iroqqa JAVOB BERMANG.

※ **Fishing/firibgarlik guruhiga qo'shilish yoki jinoyatda muayyan rol o'ynash (ya'ni, naqd pul yechib olish, telemarket faoliyati bilan shug'ullanish va hokazolar) ham tegishli qonun va nizomlarga muvofiq qattiq jazolanadi.**

★ **Ovozli fishing holatlari**

- Oila a'zosi pul yuborishi uchun uni farzandi yoki ota-onasini "o'g'irlab ketilgan" deb aldash
- O'zini politsiya xodimi yoki tergov organi tergovchisi sifatida ko'rsatib, shaxsiy ma'lumotlar yoki pul so'rash
- Jabrlanuvchi pul o'tkazishi yoki shaxsiy/moliyaviy ma'lumotlarini ochiqlashi uchun aldash maqsadida o'zini bank yoki moliya muassasasi deb ko'rsatish
- O'zini kredit karta kompaniyalari yoki telekommunikatsiya xizmatlari provayderi xodimlari sifatida ko'rsatib, sizda muddati o'tgan/to'lanishi kerak bo'lgan to'lovlar borligini aytib pul so'rash.

► Smishing: Smishing – bu fishingning bir ko'rinishi bo'lib, unda tajovuzkor jabrlanuvchining moliyaviy ma'lumotlarini og'irlash maqsadida uni havolani bosish yoki zararli ilovani o'rnatishga aldash uchun jozibali matnli xabar yuboradi. Smishingning oldini olish uchun mobil telefoningizning xavfsizlik sozlamalarini kuchaytiring va xat hatto siz bilgan odamdan yuborilgan bo'lsa ham URL manzilini bosishdan oldin tekshiring.

► Internet firibgarligi: Jismoniy shaxslar o'rtasidagi Internet orqali tranzaksiyalarni sertifikatlangan va xavfsiz tranzaksiya sayti orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, tranzaksiyadan oldin boshqa tomonning ma'lumotlarini (telefon raqami, hisob raqami va hokazolar) tekshirib ko'ring.

※ **Anda dapat melaporakan penipuan/penipuan atau memeriksa apakah pihak lawan telah dilaporkan sebelumnya di situs web Badan Kepolisian Nasional (www.police.go.kr) atau aplikasi seluler CyberCop.**

• **Uydagi zo'rvonlik va uchrashuvda kuch ishlatish**

► Uyda zo'rvonlik va uchrashuvda kuch ishlatish holatlari yuz bergan taqdirda qarindoshlaringiz, qo'shnilaringiz, do'stlaringiz va politsiyaga xabar bering va yordam so'rang.

※ **Barcha turdagi dalillarni (suratlar, tibbiy ma'lumotnoma va boshqalar) saqlab qo'ying va yordam uchun professional muassasalarga (Uydagi zo'rvonlik boshpanalari, ayollar tashkilotlari va hokazolar) murojaat qiling. * Ayollar uchun favqulodda chaqiruv – 1366 / Danuri chaqiruv markazi – 1577-1366**

• **Bolalar yo'qolishi va o'g'irlanishi**

► Begona odam o'zi bilan biror joyga borishga majburlasa yoki avtomobilga o'tqazmoqchi bo'lsa, bolangizni qochib ketishga yoki yordam so'rashga o'rgating.

► Bolangizga har doim o'z ismini, yoshini, manzilini, telefon raqamini, ota-onasining ismini eslab qolishni o'rgating. Shuningdek, u qayerga ketayotganini, kim bilan ketayotganini va nima kiyganini esda saqlang.

• **Maktabdagi zo'rvonlik**

► Maktabdagi zo'rvonlik – bu o'quvchiga maktab ichida va undan tashqarida jismoniy, ruhiy va mulkiy zarar yetkazishni o'z ichiga olgan harakat (ya'ni, hujum qilish, qo'rqitish, bezorilik va hokazolar). Maktabda zo'rvonlik yuz bergan taqdirda o'qituvchingizga, ota-onangizga yoki politsiyaga darhol xabar bering.

► Qorong'i tor ko'chalardan, favfli joylardan iloji boricha uzoqroq yuring. Agar maktabdagi bezori pulingiz, narsalaringiz va hokazolarni o'g'irlagan bo'lsa, siz eng yaqin politsiya bo'limiga xabar berish orqali faol javob qaytarishingiz kerak.

• **Jinsiy tajovuz (zo'rqlash, noqonuniy tasvirga olish, raqamli zo'rqlash/ jinsiy tajovuz)**

► Agar jinsiy zo'rvonlik yoki jinsiy tajovuzga uchragan bo'lsangiz, darhol 112 raqamiga xabar bering. (Politsiyaga xabar berishdan oldin kiygan ichki kiyim va kiyimingizni yuvmasdan saqlab qo'yish bizga tajavuzkorni/jinoyatchini topishga yordam beradi).

► Vaziyat haqida yodingizga kelgan hamma narsani yozib qo'ying (ya'ni, tajovurkorning xususiyatlari, tashqi ko'rinishi va hokazolar).

► Agar yaqinlaringizdan kimdir jinsiy jinoyat qurboniga aylangan bo'lsa, ularni tinglang va 1577-1366 raqami orqali yordam so'rashini aytting.

• **O'g'irlik (talonchilik, cho'ntakkesarlik, hamyon o'g'irlash va hokazolar)**

► Agar uzoq vaqt uydan uzoqda bo'lsangiz, masalan, ta'tilga chiqsangiz, uyingiz oldida muntazam yetkazmalar to'planib qolishining oldini oling. Shuningde, har qanday qimmatbaho narsalarni va naqd pulni bankda yoki xavfsiz joyda saqlang.

► Odamlar gavjum joylarda, masalan, terminallar, vokzallar, marketrlar va hokazolarda, narsalaringizga e'tiborli bo'ling va cho'ntakkesarlar va hamyon o'g'irlovchilardan ehtiyot bo'ling.

► Agar siz moliya muassasasidan katta miqdorda naqd pul yechib olmoqchi bo'lsangiz, qo'riqchi yoki politsiya xodimidan yordam so'rang.

※ **Google PlayStore yoki Apple AppStore do'konidan jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha "PolCare"** (Milliy politsiya agentligi tomonidan taqdim etilgan) ma'lumotlar ilovasini yuklab oling.